

Raximov Abdulbosid
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent
Islom Instituti 4-kurs talabasi

Anotatsiya (O‘zbekcha)

Ushbu maqola Shayx Muhammad Tohir ibn Oshurning hayoti, ilmiy kamoloti va islom ilm-fani rivojidagi o‘rni haqida bayon qiladi. U o‘z zamonasining og‘ir siyosiy-iqtisodiy sharoitlarida kamol topib, arab-islam ummatini ma’rifat, tafsir, fiqh, kalom, balog‘at kabi fanlar orqali yuksaltirishda katta hissa qo‘shtigan. Ayniqsa, Zaytuna universitetidagi faoliyati, islohotchilik yondashuvi va o‘ziga xos tafsir metodologiyasi orqali arab dunyosida muhim o‘ringa ega bo‘lgan. Maqolada shuningdek, uning ta’lim olgan ustozlari, yetishtirgan shogirdlari va ilmiy xizmatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar (O‘zbekcha)

Muhammad Tohir ibn Oshur, Zaytuna universiteti, tafsir, fiqh, kalom, balog‘at, islohot, arab dunyosi, ilm-fan, Tunis, Shayx Aziz

التعليق (Arabcha)

تناول هذه المقالة سيرة الشیخ محمد الطاهر بن عاشور، وسلط الضوء على نشأته العلمية وسط الظروف السياسية والاقتصادية المعقدة في عصره. تبرز المقالة إسهاماته الكبيرة في مجالات التفسير، الفقه، العقيدة، والبلاغة، بالإضافة إلى دوره الإصلاحي في جامعة الزيتونة وتأثيره العميق في العالم العربي. كما تعرض المقالة علاقته بشیوخه، وتلاميذه، وأبرز مؤلفاته التي شكلت منعطفاً هاماً في الفكر الإسلامي المعاصر.

الكلمات المفتاحية (Arabcha)

محمد الطاهر بن عاشور، جامعة الزيتونة، التفسير، الفقه، العقيدة، البلاغة، الإصلاح، العالم العربي، العلم، تونس، الشیخ العزیز

Annotation (Inglizcha)

This article explores the life and intellectual legacy of Shaykh Muhammad Tahir Ibn Ashur, highlighting his scholarly development amidst the political and social turmoil of his time. It discusses his major contributions in Quranic exegesis, Islamic jurisprudence, theology, and rhetoric. The article also examines his reformist activities at Zaytuna University and his profound impact on Islamic scholarship in the Arab world. His relationships with his teachers and students, as well as his key works, are also analyzed.

Keywords (Inglizcha)

Muhammad Tahir Ibn Ashur, Zaytuna University, tafsir, fiqh, kalam, rhetoric, reform, Arab world, scholarship, Tunisia, Shaykh Aziz

Аннотация (Ruscha)

В данной статье рассматривается жизнь и научное наследие шейха Мухаммада Тахира ибн Ашура, сформировавшегося в условиях политической и социальной нестабильности своего времени. Описываются его вклад в развитие исламских наук — тафсир, фикх, калам и риторика, а также его реформаторская деятельность в Университете Зайтуна и влияние на арабо-мусульманский мир. Особое внимание уделено его наставникам, ученикам и значимым научным трудам.

Ключевые слова (Ruscha)

Мухаммад Тахир ибн Ашур, университет Зайтуна, тафсир, фикх, калам, риторика, реформы, арабский мир, наука, Тунис, шейх Азиз

Islom tarixida chuqur tafakkur egasi bo‘lgan, tafsir, fiqh, usul, kalom va balog‘at sohalarida iz qoldirgan allomalardan biri bu Shayx Muhammad Tohir ibn Oshur bo‘lib, u XX asrda arab-islam olamining fikriy va ma’naviy uyg‘onishida muhim rol o‘ynagan siymolardan biridir. Uning hayoti, zamonasi, ilmiy faoliyati, yetishtirgan shogirdlari va assarlari orqali islam tafakkurida chuqur ildiz otgan ilmiy metodologiyasini kuzatish mumkin. Mazkur maqolada Shayx Ibn Oshurning hayoti va ilmiy merosi batafsil yoritiladi.

Buyuk olim, XX asrning yirik mufassiri va islam olamining yetuk arbobi Muhammad Tohir ibn Muhammad Tohir ibn Muhammad ibn Muhammad Shoziliy ibn Abdulqodir ibn Muhammad ibn Oshur 1879-yilning barakali avgust oyida (hijriy 1296-yilning muborak jumodilavvalida) Tunisning fayzli Marsa shahridagi bobosining qasrida hayotga keldi. Onasi, fazilatli Fotima xonim esa o‘z davrining mashhur va bilimdon ulamolaridan biri bo‘lgan Shayx Vazir Muhammad Aziz ibn Muhammad Habib ibn Muhammad Toyib ibn Muhammad ibn Muhammadning nasldan naslga o’tib kelayotgan ilmiy va ma’naviy boylikka ega bo‘lgan qizlari edilar[1].

Ibn Oshur nufuzli, chuqur ildizlarga ega bo‘lgan va asrlar osha davom etib kelayotgan boy ilmiy an’analarga ega bo‘lgan xonadonda dunyoga keldi. Uning sharaflı nasabi Andalusiyaga borib taqaladi. Keyinchalik ularning oilasi ilm-fan va madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan Marokashning go’zal Sale shahriga, undan so’ng esa Sharq va G’arb madaniyatining chorrahasida joylashgan Tunisga ko’chib o’tgan. Otasi tomonidan bobosi Tunis poytaxtining adolatli va o’tkir zehnli qozisi sifatida jamiyatda hurmat va e’tiborga sazovor bo‘lgan bo’lsa, ona tomonidan bobosi o‘z davrining zabardast ilm-fan arbobi, ko’plab shogirdlar yetishtirgan va qimmatli asarlar yaratgan Alloma Vazir Shayx Muhammad Aziz bo‘lgani uning ilk yoshligidan boshlab olgan bilim va tarbiyasida beqiyos va muhim rol o‘ynadi. Ushbu shonli shajara va boy ilmiy muhit Muhammad Tohir ibn Oshurning kelajakdagi serqirra ilmiy izlanishlari,

ijtimoiy faolligi va ummat uchun qiladigan xizmatlariga mustahkam va poydevorli zamin yaratdi.

Muhammad Tohir ibn Oshur o‘zining sermahsul hayoti davomida arab va islom ummatining tarixiy burilish davriga guvoh bo‘ldi. XIX asrning oxiri va XX asrning birinchi yarmi arab mamlakatlari va umuman islom dunyosi uchun siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, diniy va madaniy sohalarda chuqur inqiroz va o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Bu davrda yirik mustamlakachilik davlatlarining arab diyorlariga nisbatan agressiv siyosati kuchayib, mintaqaning katta qismi bevosita yoki bilvosita ularning nazoratiga o‘tdi. Siyosiy parokandalik, milliy ozodlik harakatlarining shakllanishi, an’anaviy ijtimoiy tuzilmalarning yemirilishi va modernizatsiya jarayonlarining ziddiyatli kechishi bu davrning xarakterli xususiyatlari edi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Tunis ham mintaqadagi umumiy beqarorlikdan chetda qolmadi. Usmonli xilofatining tobora zaiflashuvi Tunisda ham siyosiy bo‘shliq va mahalliy hokimiyat uchun kurashlarning kuchayishiga olib keldi. Amirlar o‘rtasidagi raqobat, ichki nizolar va iqtisodiy qiyinchiliklar jamiyatning barcha sohalariga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bunday murakkab sharoitda ilmiy va ma’rifiy muhitni saqlab qolish va rivojlantirish jiddiy qiyinchiliklarni tug’dirdi. Bu holatlar, tabiiyki, jamiyatning ijtimoiy, diniy va axloqiy taraqqiyotiga sezilarli to‘siq bo‘ldi[2].

Aynan mana shunday murakkab va og’ir bir davrda Muhammad Tohir ibn Oshur dunyoga keldi va kamol topdi. Uning bolaligi va yoshligi Usmonli xilofatining inqirozi, Tunisda hukmronlik uchun kurashlar va mustamlakachilik xavfining kuchayishi bilan bog’liq bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tartibsizliklar muhitida o‘tdi. Shunga qaramay, Ibn Oshur o‘zining intellektual salohiyati va ilmga bo‘lgan kuchli ishtyoqi tufayli bunday qiyinchiliklarni yengib o‘tdi va o‘z hayotini xalqni ma’rifatlantrishga bag’ishladi. Uning faoliyati ilm-fanni chuqur o‘rganish, jamiyatga foydali nasihatlar berish, fundamental ilmiy asarlar yaratish, nufuzli ilmiy majlislarda faol ishtirok etish va ilmni keng yoyish orqali namoyon bo‘ldi. Tohir ibn Oshur o‘zining barcha intilishlarida islomiq qadriyatlarni qayta tiklash, zamonaviy bilimlar bilan uyg’unlashgan holda ilmiy yangilanishlarni yaratish va jamiyatni sog’lom, taraqqiy etgan yo‘lga boshlashga intildi.

Davrning og’ir sinovlari va jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy beqarorlik, islom sivilizatsiyasining mavjudligi va rivojlanishiga tahdid solayotganligi sababli, turli islochchilik harakatlari vujudga keldi. Bu harakatlar jamiyatni uyg’otish, insonlar qalbidagi o‘zgarishlarga turki berish va ilmiy yuksalishga zamin yaratishda muhim rol o‘ynadi. Ichki ijtimoiy talablar va tashqi siyosiy bosimlar yangi avlod islohotchilarining shakllanishiga zamin yaratdi. Aynan shu jarayonda Muhammad Tohir ibn Oshur kabi buyuk shaxslar maydonga keldilar va o‘zlarining chuqur bilimlari, progressiv g’oyalari va amaliy islohotlari bilan jamiyatni transformatsiya qilishga ulkan hissa qo‘shdilar.

Muhammad Tohir ibn Oshurning ilk ilmiy qadamlari uning onasi tomonidan bobosi, taniqli olim Shayx Vazir Muhammad Aziz va otasi Shayx Muhammad ibn Oshurlarning bevosita rahbarligi ostida boshlandi. Ikkala nufuzli shayx ham nabiralarining diniy va tarbiyaviy kamoloti uchun alohida e'tibor qaratdilar. Bu erta davrdagi e'tibor Ibn Oshurning kelajakdagi sermahsul ilmiy faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratdi.

U olti yoshidan boshlab Qur'oni Karimni yodlashga kirishdi. Keyinchalik o'zining chuqur ilmiy va diniy ta'lmini o'sha davrning eng mashhur va bilimli ulamolaridan oldi. U arab tili grammatikasi (nahv), balog'at, aqida (islomiy e'tiqod), fiqh (islom huquqi), faroiz (meros huquqi), usul al-fiqh, hadis, siyrat kabi bir qator fundamental islomiy ilmlar bo'yicha ko'plab muhim matnlar va sharhlarni o'rgandi[3].

14 yoshga to'lgach, Muhammad Tohir ibn Oshur islom dunyosining eng qadimiylari va nufuzli ta'lim maskanlaridan biri bo'lgan Zaytuna universitetiga o'qishga kirdi. Bu yerda u o'zining zukkoligi va ilmga bo'lgan qiziqishi bilan ustozlarining alohida e'tiboriga sazovor bo'ldi. Zaytuna universitetidagi o'qish davri taxminan yetti yil davom etdi va bu muhim davr uning ilmiy dunyoqarashi, metodologik asoslari va shaxsiyatining to'liq shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynadi[4].

Ibn Oshur arab tili va nahv ilmini chuqur o'rghanish jarayonida Ibn Molikning mashhur "Alfiya" asarini turli sharhlari bilan birga mutolaa qildi. Jumladan, Shayx Xolid Azhariyning "Tasrih bimazmuni tavzih", Makkudiy va Ashmuniyarning "Alfiya"ga yozgan sharhlari uning grammatik bilimlarini mustahkamladi. Shuningdek, arab tilining yetuk olimi Ibn Hishomning "Mug'niy ul-labib" asarini Shayx Dammomiyniyning "Tuhfat al-g'arib bisharhi Mug'niy ul-labib" nomli mukammal sharhi bilan birga o'rgandi. Balog'at (ritorika) fanini o'zlashtirishda Sa'd Taftazoniyning "Talxis al-ma'ani" asariga yozgan mashhur sharhi "Al-Mutavval" va "Al-Muxtasar" hamda "Risolatu Samarcandiy"ning sharhlari uning uslubshunoslik va notiqlik san'ati bo'yicha chuqur bilim olishiga xizmat qildi. Fiqh (islom huquqi) ilmini o'rghanishda esa Imom Dardirning Molikiy mazhabining asosiy manbalaridan biri bo'lgan "Aqrobul masalik ila mazhabi Imam Molik" asari, shuningdek, Ibn Osim Malikiyning "Tuhfatul Hukkam" nomli manzum asariga Tovudiy tomonidan yozilgan "Hilyul maasim libinti Fikr ibn Osim" sharhi uning huquqiy bilimlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Muhammad Tohir ibn Oshur usul al-fiqh (fiqh uslubiyati) ilmini o'rghanishda Imam al-Haromayn al-Juvayniyning fundamental asari bo'lgan "Al-Varaqat"ga Hattob tomonidan yozilgan sharhni, shuningdek, Shihobuddin al-Qarrofiyning usul al-fiqhga oid muhim tadqiqoti "Tanjihul Fusul" asarini chuqur o'zlashtirdi. Aqida (islomiy e'tiqod) ilmida Umar ibn Muhammad an-Nasafiyning mo'tabar "Aqidah an-Nasafiyy" matnini va Izzuddin al-Ijiyning kalom ilmi (islomiy falsafa va ilohiyot)ga oid monumental asari "Al-Mavaqif fi ilm al-kalam"ni Sharif Jurjoniyning chuqur tahliliy

sharhi bilan birga o'rgandi. Siyrat (payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning hayot tarzi) ilmida Qozi Iyozning "Ash-Shifa bi ta'rifi huquq al-Mustafa" nomli mashhur asarini Shayx Shihabuddin al-Xoffajiyyning keng qamrovli sharhi bilan mutolaa qildi.

Muhammad Tohir ibn Oshurning ilmiy kamolotida muhim rol o'ynagan va unga katta ta'sir ko'rsatgan bir qator yetuk ulamolar bo'lган. Ushbu dissertatsiya doirasida o'sha davrning taniqli va Ibn Oshurning ta'lim-tarbiyasida alohida o'rin tutgan ikki muhim shaxsga to'xtalib o'tamiz: Shayx Solim Buhojib (vafoti 1924 y.) va Shayx Muhammad Aziz (1825-1907). Ushbu nufuzli ustozlarning bevosita ta'siri va ulardan olgan fundamental ilmiy bilimlar Muhammad Tohir ibn Oshurning keng qamrovli bilim olamida shakllanishida muhim rol o'ynadi.

Shayx Ibn Oshur sermahsul umri va Alloh taoloning unga bergen barokati tufayli ko'plab avlodlarning ustoziga aylandi. Uning bilimlaridan nafaqat yosh talabalar, balki yetuk olimlar ham bahramand bo'ldilar. Uning eng mashhur va ta'sirli talabalari qatorida Alloma va Muhaqqiq Muhammad Fozil ibn Oshur, Muhammad Habib ibn Xuja va Jazoirning buyuk islohotchi ulamosi Shayx Abdulhamid ibn Badis kabi shaxslarni tilga olish mumkin[5]. Ushbu shaxslar Shayx Ibn Oshurning boy ilmiy merosidan foydalaniib, uning ta'limotlarini davom ettirdilar va islomiy bilimlarni keng tarqatishga o'zlarining muhim hissalarini qo'shdilar.

Shayx Ibn Oshur o'zining ilmiy faoliyatini Zaytuna universitetida dars berishdan boshladi va vaqt o'tishi bilan universitet ierarxiyasida bosqichma-bosqich yuqori lavozimlarga ko'tarildi. U bir necha bor Zaytuna universitetida ta'lim tizimini isloh qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga oldi. Diniy lavozimlarga tayinlanganidan so'ng, u ilmiy nazorat kengashining nufuzli a'zosi, shariat kengashlarida shuro raisi sifatida samarali faoliyat yuritdi. 1932-1933 va 1945-1952 yillarda Zaytuna jome masjidining shayxi lavozimida xizmat qildi. Shuningdek, u Tunis muftiysi (1933 yildan boshlab) va Molikiy mazhabining Shayxul Islomi kabi yuqori diniy martabalarga sazovor bo'ldi. Tunis mustaqillikka erishgach, uning ilmiy salohiyati e'tiborga olinib, 1956-1960 yillarda Zaytuna universitetining rektori etib tayinlandi. Ko'plab islomiy ilmlarda chuqur bilim sohibi va arab tilini mukammal bilgani uchun 1950-yilda Qohiradagi Arab tili akademiyasining, 1955-yilda Damashqdagi Arab ilmiy akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylandi. O'zining ulkan ilmiy va diniy xizmatlari bilan Shayx Ibn Oshur nafaqat Tunisda, balki butun arab dunyosida katta hurmat va e'tiborga sazovor bo'ldi[6].

Shayxul Azhar Alloma Muhammad Xizr Husayn va Shayx Muhammad Bashir Ibrahimiy kabi zamondoshlarining yuksak baholari Ibn Oshurning ilmiy mavqeい va ta'sirining yaqqol dalilidir. Uning serqirra ilmiy merosi turli islomiy va arabiyl ilmlarni qamrab olgan bo'lib, "At-Tahrir vat-Tanvir" tafsiri, "Maqasid ash-shari'a alislamiya"

asari va boshqa ko‘plab qimmatli kitoblari uning chuqur bilimini va o‘ziga xos ilmiy metodologiyasini namoyon etadi.

Shayx Muhammad Tohir ibn Oshur o‘zining sermahsul umrini ilm-fan, tadqiqot va ta’limga bag’ishlab, 1393 hijriy yilning 13-rajabida (milodiy 1973-yil) Tunisda vafot etdi va o‘zidan boy ilmiy meros qoldirdi. Uning hayoti va ilmiy faoliyati nafaqat o‘z davri uchun, balki keyingi avlodlar uchun ham ibrat maktabi bo‘lib qoladi[7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. D. Hasan Abduljalil Abdurahim. Nahju Ibn Oshur fil ihtijaj bil qiroatul quroniyya. — Damashq: Majallatu jamiati Damashq, 2005. — S. 368.
2. Tohir ibn Oshur. At-Tahrir vat-Tanvir. — Tunis: Dor Suhnun, 1984. — J. I. — S. 5-6.
3. D. Hasan Abduljalil Abdurahim. Nahju Ibn Oshur fil ihtijaj bil qiroatul quroniyya. —Damashq: Majallatu jamiati Damashq, 2005. —S. 368.
4. D. Mushrif ibn Ahmad Zahroniy. Asaru dalalat al-lug’aviyya fi tafsir inda Tohir ibn Oshurfi kitabihi tahrir va tanvir. — Bayrut: Muassasatu rayyon, 2009. — S. 20-22.
5. D. Mushrif ibn Ahmad Zahroniy. Asaru dalalat al-lug’aviyya fi tafsir inda Tohir ibn Oshurfi kitabihi tahrir va tanvir. — Bayrut: Muassasatu rayyon, 2009. — S. 25-27.
6. D. Mushrif ibn Ahmad Zahroniy. Asaru dalalat al-lug’aviyya fi tafsir inda Tohir ibn Oshurfi kitabihi tahrir va tanvir. — Bayrut: Muassasatu rayyon, 2009. — S. 22-24.
7. D. Hasan Abduljalil Abdurahim. Nahju Ibn Oshur fil ihtijaj bil qiroatul quroniyya. —Damashq: Majallatu jamiati Damashq, 2005. —S. 368.